

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4  
**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 7 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abduxamidov Islombek</i> O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI .....	10-18
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i> ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ .....	19-24
<i>Индиаминова Шоира Амриддиновна</i> РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ .....	25-29
<i>Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH .....	30-35
<i>Ismoilova Parvina</i> TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) .....	36-41
<i>Jomurodov Lazizbek Islomovich</i> O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI .....	42-46

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна</i> ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ .....	47-54
<i>Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna</i> VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH .....	55-61
<i>Mamadaliyev Ulug'bek</i> JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI .....	62-69
<i>Jalilov Arslon Xoshimovich</i> TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH .....	70-75
<i>Kamchibekov Farxod Olimjonovich</i> O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI .....	76-82

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Djurayev Lukmon Narzullaevich</i> ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI .....	83-87
---	-------

*Norkulov Ubaydulla Umarovich*

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI ..... 88-92

*Пулатов Шердор Нематёнович*

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАБАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ ..... 93-105

*Yusupov Murodali Sunnatovich*

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY-

FALSAFIY MASALALARI ..... 106-110

*Suleymanov Sarvar Sunatullayevich*

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI ..... 111-116

*Shernazarov Ravshan Avazovich*

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI ..... 117-122

*Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich*

VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI ..... 123-126

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Matkarimova Salomat Ko'ziyevna*

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK ..... 127-133

*Tairova Maxfuza Abdusattorovna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI ..... 134-139

*Rahimova Maftuna*

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA ..... 140-143

*Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna*

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN

TADQIQOTLAR ..... 144-147

*Xursanov Nurislom Iskandarovich*

O'ZBEK FRAZEOLIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI ..... 148-154

*Umarov Umidjon Akram o'g'li*

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI ..... 155-159

*Облокулова Шахло Асрор қизи*

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ ..... 160-164

*Nazarova Lola Maqsadilla qizi*

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ..... 165-170

*Umarxonova Dilafruz Murotjonovna*

"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI ..... 171-175

*Yunusova Ganjina Rustamovna*

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI ..... 176-180

*Мусаев Файзулло Оманович*

АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ ..... 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinova</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LESIKOGRAFIK TAHLILI .....	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIIY POETIKA .....	214-221
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	231-237
<i>Умурзаков Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	



RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI .....	283-289
---	---------

*Калимбетов Ерназар*

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ .....	290-297
--	---------

*Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li*

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI .....	298-306
--	---------

*Ходжаева Ширин*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ .....	307-317
--	---------

*Маматкулов Камолiddин Галабаевич*

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....	318-323
---	---------

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra'no Sidiq qizi*

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	324-329
---	---------

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI .....	330-341
--	---------

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	342-346
---	---------

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI .....	347-357
---	---------

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR .....	358-363
--	---------

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li*

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA .....	364-369
--	---------

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI .....	370-375
---	---------

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	376-381
--	---------

**Received:** 30 June 2024

**Accepted:** 5 July 2024

**Published:** 15 July 2024

*Article / Original Paper*

## **ADVANTAGES OF USING BLENDED LEARNING MODELS IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION**

**Hamidova Leyla Kamildjonovna**

1st year doctoral student of SamDU, majoring in Theory and Methodology of Education and Training

**Abstract.** In this article, the importance of using blended learning models in higher pedagogical education, blended learning technology, which is the integration of e-learning and traditional learning, and its models, in particular, "Blended learning" technology and its role in the educational process. Information about the role and benefits is provided. Definitions of the educational technology "Blended learning" and the founders of the educational technology "Blended learning" are presented.

**Key words:** Blended learning, mixed education, traditional education, electronic education, online, offline, distance learning

## **OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

**Hamidova Laylo Kamildjonovna**

SamDU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 1-kurs doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy pedagogik ta'limda aralash o'qitish modellaridan foydalanishning ahamiyati, elektron ta'lim va an'anaviy ta'lim integratsiyasi bo'lmish aralash ta'lim texnologiyasi va uning modellari, xususan, "Blended learning" texnologiyasi va uning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. "Blended learning" ya'ni "aralash o'qitish" ta'lim texnologiyasi haqidagi ta'riflar va "Blended learning" ta'lim texnologiyasi asoschilari haqida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Blended learning, aralash ta'lim, an'anaviy ta'lim, elektron ta'lim, onlain, oflain, masofadan o'qitish

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N51>

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni [1] da masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilganligi bizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli farmoni [2] da zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini

uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish; ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish; ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBAR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish kabi dolzarb vazifalar belgilangan.

Hozirgi vaqtda masofaviy ta'limga salbiy munosabat o'tmishda qolmoqda, ayniqsa internet hayotning barcha jabhalariga kirib borganligi sababli, u hamma joyda, deyarli hamma uchun ochiq. Aralash ta'lim, birinchi navbatda, turli xil ta'lim axborot tizimlari va platformalaridan (masalan, Hemis, Moodle) foydalanadigan, internet resurslariga kirish imkoniga ega bo'lgan va har xil turdagi vazifalarni qayta ishlash, tizimda o'z fikringizni bildirish imkonini beradigan universitetlarda tez tarqala boshladi. Har qanday darajadagi talabalar uchun oliy ma'lumot olish maqsadida aralash ta'lim, o'quv traektoriyasini tanlash orqali talabalarning o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratadi. Ta'lim rivojlanishining zamonaviy davri axborotlashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi, bu esa ta'limni metodologiya bilan ta'minlaydi, axborot va axborotlashtirish imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik, o'quv-uslubiy, dasturiy va texnologik ishlanmalarni yaratish shuningdek, ulardan optimal foydalanish amaliyotini ta'minlaydi [3].

*Oliy pedagogik ta'limda aralash o'qitish modellaridan foydalanish kiritilganda, aralash ta'lim turli resurslarni, xususan, yuzma-yuz o'quv mashg'ulotlari va elektron ta'lim elementlarini o'zida mujassam etgan o'qitish usuli ekanligi tushuniladi. Aralash ta'lim rasmiy o'quv dasturi bo'lib, unda talabalar qisman bo'lsa ham elektron, onlayn formatda o'qitiladi va shu bilan birga o'rganish vaqti, kursi va tezligini nazorat qilishning ba'zi elementlari mavjud. Qisman o'qitish talabalarning uyidan tashqarida va ichkarida amalga oshiriladi. Bunday o'rganish natijasida integratsiyalashgan o'rganish tajribasini ta'minlash uchun turli usullardan foydalaniladi[4].*

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan C.J.Bonk, C.R.Graham Blended learning texnologiyasi asoschilari hisoblanishadi. Ular (Bonk C.J. & Graham C.R. Handbook of blended learning: Global Perspectives, local designs) birgalikda olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlarini yoritib beradi. Shuningdek, "Blended learning", "Flipped learning" texnologiyasi yuzasidan Haley Threlkeld, Brame, Bormann, Herreid va Schillerslar aralash va teskari ta'limdan foydalanish va uning o'qitishga ta'siri bo'yicha, Segolsson esa boshlang'ich maktabda teskari ta'limdan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Rus olimlari orasida aralash ta'lim masalalarida ko'plab olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, Y.I. Kapustina, M.N. Moxova («Qo'shimcha pedagogik ta'lim tizimida aralash ta'limda faol usullar» dissertatsiyasi), M.S. Orlova («Professional kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishga qaratilgan dasturlashda aralash ta'lim tizimi» dissertatsiyasi), V.A. Fandei («Til universitetida chet (ingliz) tilini aralash o'qitish shaklidan foydalanishning nazariy va pragmatik asoslari» dissertatsiyasi), M.N. Kornev (Aralash ta'lim haqida), A.S. Krilova G.V. Kravchenko (Ta'limda aralash ta'lim modellaridan foydalanish), E.A. Krilova (Aralash ta'lim texnologiyasi) haqida ko'plab izlanishlar olib borishgan [5].

Mamlakatimizda Sh.Sh. Allamova, M. Fayziyeva "Flipped learning" va uning ta'lim jarayoniga amaliy tadbiri" mavzusida ilmiy ish yozgan va shu mavzu yuzasidan tadqiqotlar

o'tkazgan. Sh.Rashidov nomidagi SamDu tayanch doktoranti Umut Qodirov (Flipped classroom) modeli bo'yicha izlanishlar olib borgan, "Umumta'lim maktablarida aralash ta'lim metodikasini ishlab chiqish" nomli ilmiy ishida teskari o'qitish (Flipped Learning) modelinining afzalliklari va kamchiliklarini yoritib bergan.I.Y. Madatov"Blended learning ta'lim texnologiyasi asosida talabalarining mustaqil ta'limini samarali tashkil etishni takomillashtirish" mavzusidagi PhD Dissertatsiyasini yozgan."Aralash ta'lim (blended learning) texnologiyasi asosida o'quv jarayonini tashkil etish" hamda "O'quv jarayonini Teskari sinf (Flipped Classroom) texnologiyasidan foydalanib takomillashtirish" nomli metodik qo'llanmalar Begali Xolmirov tomonidan yozilgan bo'lib, mazkur metodik qo'llanmalarda ta'lim muassasalarida aralash ta'lim (blended learning) texnologiyasi asosida o'quv jarayonini tashkil etishning mazmuni va ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, qo'llanma AKT va boshqa zamonaviy o'quv vositalari orqali taqdim etilgan yangi didaktik imkoniyatlar asosida an'anaviy o'quv jarayonini innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan birlashtirish orqali o'qitish masalalarini o'z ichiga olgan.

Mahalliy tadqiqotchilardan L.G.Babaxodjayeva aralash ta'limga quyidagicha ta'rif beradi: *Aralash ta'lim* — an'anaviy kunduzgi, masofaviy va mustaqil ta'limni birlashtiruvchi o'qitish tizimi bo'lib, u o'qituvchilar, ta'lim oluvchilar va axborotning interfaol manbalarining o'zaro ta'sirlashishini qamrab oladi, doimo o'zaro aloqada bo'lgan va bir butunlikni tashkil etgan o'quv jarayoniga xos barcha komponentlar (o'qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, vositalari)ni aks ettiradi[6]. A.E.Begbo'tayev o'zining ilmiy ishlarida "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitishning metodik asoslarini aralash ta'limning "Flipped classroom" modeli yordamida takomillashtirish masalariga bag'ishlagan. Shuningdek, Oliy ta'lim muassasalarida fanlar ma'ruzalarini o'qitish jarayonida "Blended learning" — aralash ta'lim texnologiyasining "Flipped classroom" modelidan foydalanish samarali natijalarni beradi deb hisoblagan[7].

Aralash o'qitish modellaridan foydalanishning samaradorligini baholash uchun sifatli baholash tizimlari zarur. Pedagogik muammo sifatida, baholash mezonlari va usullarining yetishmasligi ta'lim sifatini aniqlashda va takomillashtirishda to'siq bo'lishi mumkin. Oliy pedagogik ta'limda aralash o'qitish modellaridan foydalanishda yuzaga keladigan bu pedagogik muammolarni hal qilish orqali aralash o'qitishdan to'liq foydalanish va ta'lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalari uchun aralash ta'limning quyidagi modellaridan foydalanish mumkin. Masalan, pedagogik fanlarni o'qitish ("Pedagogik mahorat asoslari", "Pedagogika tarixi", "Qiyosiy pedagogika") jarayonida "Flipped Model", "Rotation Model" (Lab. RotationModel) va hk.

"Flipped model"ning mohiyati shundan iboratki, talabalar nazariy materialni mustaqil ravishda (onlayn) o'zlashtirishlari kerak. Bunda o'qituvchi o'quv videosini tayyorlaydi yoki tayyorini tanlab, uning onlayn mazmunini taqdim etadi. Hozird zamonaviy xizmatlarning keng doirasi mavjud : Edpuzzle, Presentationtube, Movenote, Screencast-oMatic, Zaption, eduCanon, iSpring, SmartPen, Camtasia, Zoom, Meet, Teams va boshqalar. Talabalar materialni ko'rib chiqadilar, tanishadilar, tizimlashtiradilar. Va o'qituvchibu jarayonni nazorat qilishi kerak: u ta'lim oluvchilar o'zini nazorat qilish uchun testlar beradi, video taqdimotidan so'ng savollar beradi, mulohazalarni yozishni taklif qiladi Amaliy va seminar mashg'ulotlarida o'quv materialifaol o'qitish usullaridan foydalanish, amaliy topshiriqlar va o'quvchilarning samarali

mehnatini tashkil etish bilan mustahkamlanadi. Pedagogik ta'lim talabalari uchun "teskari sinf" modelidan foydalanishning quyidagi afzalliklarini aniqladik.

- istalgan vaqtda materiallarning mavjudligi;
- mustaqil tanlagan o'qish tezligi;
- moslashuvchanlik va qulaylik;
- moddiy xarajatlarni tejash;
- individual ta'lim traektoriyasini qurish;
- ariza beruvchining salohiyatini oshkor qilish imkoniyati;
- mustaqil nazorat va o'z faoliyati uchun javobgarlik;
- mazmunini tanlash orqali o'quv va kognitiv faoliyatni rag'batlantirish
- raqamli savodxonlik darajasini oshirish;
- asosiy kompetensiyalarni shakllantirish;
- keyingi rivojlanish va umrbod ta'lim olish uchun sharoit yaratish.

O'qituvchilar uchun quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi raqamli tafovutni bartaraf etish;
- tarmoq va axborot savodxonligini oshirish;
- o'zaro hamkorlikning yangi imkoniyatlari;
- ijodkorlikni namoyon etish;
- guruh loyihalarini, ijodiy topshiriqlarni, o'yinlarni tashkil etish imkoniyati;
- kasbiy malakasini yanada oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish [9].

Aralash ta'lim zamonaviy ta'lim texnologiyalarini an'anaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlashtiradi. Har qanday o'rganish usuli singari, aralash ta'lim ham o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo'lib, aralash ta'lim yondashuvini qo'llashda e'tiborga olish muhimdir. Aralash ta'limning qanday afzalliklari bor?

1. Katta guruhlar uchun juda mos keladi.

2. Yaxshiroq tayyorgarlik va fikr-mulohaza (foydali muhokamalar uchun ko'proq vaqt bor).

3. Texnologiyaga qiziqmagan muxlislar uchun juda yaxshi.

4. Xodimlar o'zlarining tezligini o'rnatadilar.

5. Xarajatlarni kamaytirish.

Mutaxassislar aralash ta'limning quyidagi afzalliklarini aniqlaydilar:

- ham sinxron, ham asinxron interaktivlik va aloqa imkoniyati;
- vaqtinchalik va cheksiz foydalanish;
- moslashuvchanlik va qulaylik;
- ta'lim mazmunining soddaligi;
- o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish;
- o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Shuningdek, aralash ta'limning mazmun-mohiyati bilim olishning an'anaviy va elektron, masofaviy formatlarini muvofiqlashtirish, texnik xizmat ko'rsatishdan iborat. Aralash ta'limda o'quvchilarga masofaviy ta'lim tizimidan va o'quv manbalaridan online yoki offline foydalanishga to'liq ruxsat beriladi. O'quvchilar bu tizimda online kutubxonalar va manbalardan foydalana oladilar. O'quvchilar nazorat ishlarining bir qismini onlayn tizimda topshirishadi. Shuningdek, tizimda o'qituvchi tomonidan guruhli muloqotlar uyushtiriladi va

to'liq loyihalar amalga oshiriladi. Aralash ta'lim modeli foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- online rejimida o'quv materialini bilan xohlagan vaqtda tanishish.
- sinov testini topshirib bilimini sinash;
- nazorat testini topshirish;
- o'tilgan mashg'ulotlarga mos qo'shimcha manbalar bilan tanishish;
- audio va video yozuvlardan, animatsiya va simulyatsiyalardan foydalanish;
- E-mail dan foydalanish va forumlarda ishtirok etish;
- ma'ruzadan tashqari o'qituvchi-talaba va talabalar o'rtasida muloqot tashkil

etish[8]

**Xulosa.** “Aralash ta'lim” texnologiyasidan foydalanishni tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelish mumkinki, undan foydalanish orqali o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlanadi, dars vaqtidan oqilona foydalanilishiga sabab bo'ladi. Ta'limning interfaolligi oshadi, ko'p sonli haqiqiy elektron resurslar bilan ishlash o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, uzluksiz ta'lim tizimida aralash ta'lim endi bilimga ega bo'layotgan ta'lim oluvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham samarali bo'lib, muammoli masalalarni chuqurroq o'rganish uchun dars soatlarini kamaytirish imkonini beradi. Ushbu texnologiya talabani faol o'quv faoliyati uchun sharoit yaratish, o'qituvchi tomonidan sarflangan vaqtni optimallashtirish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847 sonli Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/>
3. Холмиров Б. Ўқув жараёнини тескари синф (flipped classroom) технологияси асосида такомиллаштириш / методик қўлланма/ -Т.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024. – 32 б.
4. Mingbaeva B.U. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida ta'lim samaradorligini ta'minlashda interfaol usullardan foydalanish // Ilmiy-amaliy konferensiya. — Buxoro, 2019. - B. 305
5. Кравченко Г.В. Использование модели смешанного обучения в системе высшего образования // Педагогика и психология. – 2014. – № 2(82). – С.22-24.
6. Babaxodjaeva L.G. Talabalarning pedagogic kompetentligini rivojlantirish jarayonida aralash ta'lim modelini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari, avtoreferat. -T.: CHDPU, 2021. 16 b.
7. Begbo'tayev A.E. “Tarmoq texnologiyalari” fanini o'qitishni takomillashtirishning ilmiy-pedagogic asoslari. Monografiya. - Toshkent, 2020. -125 b.
8. Jumakulova M. X. Umumta'lim maktabilarida aralash ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari//Respublika ilmiy-amaliy anjumani, may 15-16, 2023
9. Sobchenko T. Choice of blended learning models for higher pedagogical education students. Physical and Mathematical Education. 2021. Issue 2(28). P. 17-21.
10. [www.webofscience.com](http://www.webofscience.com)
11. [www.pdfdrive.com](http://www.pdfdrive.com)

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).